

TIL BIRLIKLARINING NOMLOVCHI VOSITA MAQOMI XUSUSIDA

Tursunova Nodirabegim Fayzullo qizi
f.f.f.d (PhD) ADCHTI, Ingliz tili va adabiyoti kafedrası
nodira.tursunova.93@mail.ru

Tojimaxammadova Dilafruz Ikromjon qizi
ADCHTI, 1-kurs magistratura talabasi
d14758379@gmail.com

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.21901955>

Annotatsiya. Mazkur maqolada til birliklarining nominativ tabiati, soʻzning gnoseologik va semiologik xususiyatlari hamda til, tafakkur va borliq oʻrtasidagi munosabatlar tahlil qilinadi. Nomlash nazariyasining tarixiy ildizlari antik davr tilshunosligi va falsafiy qarashlari asosida yoritilib, V. Gumboldt, F. de Sossyur, E. Sepir, B. Uorf kabi olimlarning konsepsiyalari ilmiy jihatdan sharhlanadi. Shuningdek, til birliklarining paradigmatic va sintagmatic munosabatlari, milliy-madaniy tafakkur bilan bogʻliqligi hamda nominatsiya jarayonining lingvistik mohiyati ochib beriladi.

Kalit soʻzlar: nomlash, nominatsiya, til birligi, soʻz, semantika, semiotika, gnoseologiya, paradigmatica, sintagmatica, tafakkur, til va borliq.

Abstract. This article analyzes the nominative nature of language units, the gnoseological and semiological features of words, as well as the relationship between language, thought, and reality. The historical foundations of nomination theory are examined on the basis of ancient linguistic and philosophical views, while the concepts of scholars such as Wilhelm von Humboldt, Ferdinand de Saussure, Edward Sapir, and Benjamin Lee Whorf are interpreted from a scientific perspective. In addition, the paradigmatic and syntagmatic relations of language units, their connection with national and cultural thinking, and the linguistic essence of the nomination process are elucidated.

Keywords: nomination, language unit, word, semiotics, semantics, cognition, paradigmatics, syntagmatics, language and thought.

Аннотация. В данной статье рассматриваются номинативная природа языковых единиц, гносеологические и семиологические особенности слова, а также взаимосвязь языка, мышления и объективной реальности. Исторические основы теории номинации анализируются на материале античных лингвистических и философских взглядов, а научные концепции В. фон Гумбольдта, Ф. де Соссюра, Э. Сепира и Б. Уорфа интерпретируются с лингвистической точки зрения. Кроме того, раскрываются парадигматические и синтагматические отношения языковых единиц, их связь с национально-культурным мышлением, а также лингвистическая сущность процесса номинации.

Ключевые слова: номинация, языковая единица, слово, семиотика, семантика, мышление, язык и реальность.

Kirish. Soʻz barcha davrlarda turli mamlakat tilshunoslarining diqqat markazida boʻlib kelgan. Chunki tilning mavjudligi va rivojlanishi bevosita soʻz bilan bogʻliqdir. Dastlabki taqlidiy birliklardan boshlab zamonaviy terminologik tizimlargacha boʻlgan barcha lisoniy qatlamlar tilshunoslikning muhim tadqiqot obyekti tashkil etadi. Har qanday tilning lugʻaviy boyligi, avvalo, undagi soʻz va iboralar tizimi orqali namoyon boʻladi. Shu sababli soʻzning tabiati, uning shakllanishi, maʼno ifodalash imkoniyatlari hamda nominativ vazifasi tilshunoslikning eng dolzarb masalalaridan biri hisoblanadi.

Hozirgi kunda dunyo tillarining leksik va frazeologik tarkibi koʻplab lugʻatlar va ilmiy manbalarda tavsiflangan boʻlsa-da, soʻzning universal ilmiy taʼrifi hanuzgacha toʻliq shakllanmagan. Bu holat turli tillarning gnoseologik va semiologik xususiyatlari bilan izohlanadi. Chunki har bir tilning ichki taraqqiyot qonuniyatlari, grammatik qurilishi hamda milliy-madaniy tafakkuri oʻziga xos boʻlib, ular soʻzning shakllanishi va qoʻllanishida muhim oʻrin tutadi [6, 11].

Til birliklarining nominativ tabiati inson tafakkuri, borliqni idrok etish va uni til orqali ifodalash jarayoni bilan chambarchas bogʻliqdir. Inson atrofidagi predmet va hodisalarni anglash orqali ularga nom beradi hamda shu tariqa tilning nominativ tizimi shakllanadi. Shu jihatdan qaralganda, til faqat kommunikativ vosita emas, balki insonning bilish faoliyati, madaniy tajribasi va ijtimoiy tafakkurini aks ettiruvchi murakkab semiotik tizim sifatida namoyon boʻladi.

Nomlash jarayonining lingvistik mohiyatini oʻrganish qadimgi davrlardan boshlab tilshunos va faylasuflarning diqqat markazida boʻlgan. Antik davr mutafakkirlari, keyinchalik esa struktur tilshunoslik

va zamonaviy semiotika vakillari til birliklarining nominativ xususiyatlarini turli nuqtayi nazardan tahlil qilganlar. Ayniqsa, V. Gumboldt, F. de Sossyur, E. Sepir va B. Uorflarning ilmiy qarashlari til, tafakkur va borliq oʻrtasidagi munosabatlarni chuqur yoritishda muhim nazariy asos boʻlib xizmat qiladi [1].

Mazkur maqolada til birliklarining nominativ tabiati, ularning gnoseologik va semiologik xususiyatlari hamda tilning inson tafakkuri bilan bogʻliqligi ilmiy manbalar asosida tahlil qilinadi.

Tadqiqot metodologiyasi. Maqolada tavsifiy, qiyosiy-tahliliy hamda semantik tahlil metodlaridan foydalanildi. Til birliklarining nominativ tabiati antik davr falsafasi, struktur tilshunoslik va zamonaviy semiotika nazariyalari asosida oʻrganildi. Tadqiqot jarayonida V. Gumboldt, F. de Sossyur, E. Sepir, B. Uorf, Ch. Pirs kabi olimlarning ilmiy qarashlari qiyosiy jihatdan tahlil qilindi.

Asosiy qism. Nomlash masalasi qadimgi davrlardan oq falsafiy tafakkurning muhim yoʻnalishlaridan biri sifatida shakllangan. Antik davr mutafakkirlari — Platon, Aristotel, Diogen va Varro kabi olimlar soʻzning tabiati, uning predmet bilan munosabati hamda nomlashning mohiyati haqida dastlabki ilmiy qarashlarni ilgari surganlar. Xususan, Platonning “Kratil” dialogida nomlarning tabiiy yoki shartli ravishda paydo boʻlishi masalasi muhokama qilinadi. Aristotel esa til birliklarini tafakkur va mantiq bilan bogʻliq holda tahlil qilgan. Bu qarashlar keyinchalik nominatsiya nazariyasining shakllanishiga nazariy asos boʻlib xizmat qilgan.

Til birliklari nafaqat nominativ vazifani bajaradi, balki xalqning madaniyati, urf-odatlar, dunyoqarashi va milliy tafakkurini ham aks ettiradi. Shu sababli turli xalqlarning olamni idrok etish xususiyatlari ularning leksik va frazeologik tizimida yaqqol namoyon boʻladi [8,46]. Masalan, ayrim xalqlarda tabiat hodisalari, qarindoshlik munosabatlari yoki milliy qadriyatlar bilan bogʻliq soʻzlarning juda koʻpligi ularning hayot tarzi va tarixiy taraqqiyoti bilan bevosita bogʻliqdir. Demak, til birliklari insonning ijtimoiy-madaniy tajribasini saqlovchi va avloddan-avlodga yetkazuvchi vosita sifatida ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Nomlash jarayoni inson tafakkuri bilan uzviy bogʻliq boʻlib, inson dastlab predmet va hodisalarni idrok etadi, keyinchalik esa ularni maʼlum nom orqali ifodalaydi. Shu tariqa tilning nominativ tizimi shakllanadi. Har qanday nom maʼlum bir tushunchaning lisoniy ifodasi boʻlib, u inson ongidagi bilish jarayonining mahsuli hisoblanadi. Tilshunoslikda nominatsiya masalasi semantika, onomasiologiya, semiotika va kognitiv lingvistika kabi yoʻnalishlar bilan chambarchas bogʻliq holda oʻrganiladi.

Til va tafakkur munosabati. Til va tafakkur oʻrtasidagi munosabat tilshunoslikning eng murakkab va muhim masalalaridan biri hisoblanadi. V. Gumboldt taʼlimotiga koʻra, til xalq ruhiyatining mahsuli boʻlib, har bir xalq dunyoni oʻz tili orqali idrok etadi [1, 58]. Olim tilni tayyor mahsulot emas, balki doimiy harakatdagi ijodiy faoliyat sifatida talqin qiladi. Uning fikricha, til inson tafakkurining shakllanishida faol ishtirok etadi va xalqning milliy dunyoqarashini ifodalaydi.

Keyinchalik L. Vaysgerber, E. Sepir va B. Uorf tilning borliqni idrok etishdagi faol rolini yanada rivojlantirdilar. Xususan, Sepir–Uorf gipotezasiga koʻra, insonning dunyoni qanday koʻrishi va tushunishi uning tili bilan bogʻliqdir. Til nafaqat fikrni ifodalaydi, balki insonning tafakkur tarzini ham maʼlum darajada shakllantiradi. Shu sababli turli tillarda bir xil predmet yoki hodisalarning turlicha nomlanishi xalqlarning borliqni turlicha idrok etishini koʻrsatadi.

Tilning semiologik tabiati esa F. de Sossyur tomonidan ilmiy asoslangan boʻlib, u tilni belgilar tizimi sifatida talqin qiladi [2]. Olim til belgisi ikki tomonlama mohiyatga ega ekanligini taʼkidlaydi: ifodalovchi (signifiant) va ifodalanuvchi (signifié). F. de Sossyur til tizimidagi paradigmatic va sintagmatic munosabatlarni asosiy lingvistik tamoyillar sifatida izohlaydi. Paradigmatic munosabat til birliklarining tizimdagi oʻzaro aloqalarini bildirsa, sintagmatic munosabat ularning nutq jarayonidagi ketma-ket bogʻlanishini ifodalaydi.

Til va tafakkur munosabatini oʻrganish zamonaviy lingvistikaning muhim yoʻnalishlaridan biri boʻlib qolmoqda. Chunki insonning borliqni anglashi, tushunchalarni shakllantirishi va muloqot jarayoni bevosita til orqali amalga oshadi. Shu jihatdan til inson tafakkurining asosiy ifoda vositasi sifatida namoyon boʻladi.

Tahlil va natijalar. Tahlillar shuni koʻrsatadiki, til birliklarining nominativ tabiati inson tafakkuri, madaniyati va borliqni idrok etish jarayoni bilan uzviy bogʻliqdir. Inson atrofidagi predmet va hodisalarni anglash orqali ularga nom beradi hamda shu asosda tilning nominativ tizimi shakllanadi. Har qanday nom insonning bilish faoliyati mahsuli sifatida yuzaga kelib, u nafaqat predmetni ifodalaydi, balki unga boʻlgan munosabatni ham aks ettiradi. Shu sababli til birliklari inson tafakkurining semantik modeli sifatida namoyon boʻladi.

Turli xalqlarning yashash muhiti, mentaliteti va tarixiy taraqqiyoti ularning til birliklarida aks etadi. Ayniqsa, milliy-madaniy xususiyatlar leksik va frazeologik birliklarda yaqqol namoyon bo'ladi. Masalan, o'zbek tilida “mehmondo'stlik”, “hashar”, “mahalla” kabi birliklar xalqning ijtimoiy-madaniy hayoti bilan chambarchas bog'liq tushunchalarni ifodalaydi. Ingliz tilida esa “privacy” tushunchasi insonning shaxsiy hududi va mustaqilligiga bo'lgan munosabatni bildiradi. Yapon tilidagi “komorebi” so'zi daraxt barglari orasidan tushayotgan quyosh nurini ifodalab, tabiatga estetik munosabatni aks ettiradi. Bu kabi misollar til birliklari xalqning dunyoqarashi va madaniy qadriyatlarini o'zida mujassamlashtirishini ko'rsatadi.

Shuningdek, til birliklarida borliqni obrazli tarzda ifodalash holatlari ham keng uchraydi. Masalan, o'zbek tilidagi “bahor keldi”, “o'rmon uxlayapti” kabi birikmalarda tabiat hodisalari insoniy xususiyatlar bilan ifodalanadi. Ingliz tilida “Time flies” (“Vaqt uchadi”) yoki “The sun smiled down on us” (“Quyosh bizga kulib boqdi”) kabi birliklar ham personifikatsiya hodisasi asosida yuzaga kelgan. Rus tilidagi “Mope сердилось” (“Dengiz g'azablandi”) birikmasida ham tabiat hodisasining obrazli ifodasi kuzatiladi. Ushbu misollar nominatsiya jarayonida inson tafakkuri va tasavvurining muhim o'rin tutishini ko'rsatadi.

Tadqiqot davomida til va tafakkur munosabatining gnoseologik hamda semiologik jihatlarini o'zaro bog'liq holda namoyon bo'lishi aniqlandi. Til insonning borliqni idrok etishi, tushunchalarni shakllantirishi va ularni muloqot jarayonida ifodalashida asosiy vosita vazifasini bajaradi. Shu jihatdan qaralganda, til birliklari inson tafakkurining tashqi ko'rinishi sifatida namoyon bo'ladi.

Shuningdek, til birliklarining paradigmatic va sintagmatic xususiyatlari ularning semantik imkoniyatlarini ochib berishda muhim ahamiyat kasb etadi. Paradigmatic munosabat til birliklarining tizim ichidagi o'zaro semantik aloqalarini belgilasa, sintagmatic munosabat ularning nutq jarayonidagi ketma-ket bog'lanishini ifodalaydi. Masalan, “katta”, “ulkan”, “buyuk” so'zlari paradigmatic qator hosil qilsa, “katta uy”, “buyuk inson”, “ulkan bino” kabi birikmalar sintagmatic munosabat asosida yuzaga keladi. Ushbu ikki yo'nalish til birliklarining ma'no hosil qilish mexanizmini aniqlashda muhim nazariy asos bo'lib xizmat qiladi.

Natijalar shuni ko'rsatadiki, nominatsiya jarayoni oddiy nomlash hodisasi bo'libgina qolmay, balki inson tafakkuri, milliy dunyoqarashi va ijtimoiy tajribasi bilan chambarchas bog'liq murakkab lingvistik jarayondir. Shu bois til birliklarining nominativ mohiyatini o'rganish zamonaviy tilshunoslikning dolzarb masalalaridan biri sifatida o'z ahamiyatini saqlab qolmoqda.

Xulosa. Til birliklari inson tafakkuri va borliq o'rtasidagi asosiy vosita hisoblanadi. So'zning nominativ tabiati gnoseologik va semiologik jihatlar bilan chambarchas bog'liq bo'lib, tilning funksional imkoniyatlarini belgilaydi. Nomlash jarayoni insonning mental faoliyati mahsuli sifatida namoyon bo'ladi va har bir xalqning milliy-madaniy xususiyatlarini aks ettiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Гумбольдт В. фон. Язык и философия культуры. – М.: Прогресс, 1985.
2. Соссюр Ф. де. Труды по языкознанию. – Екатеринбург: Университет, 1999.
3. Сепир Э. Избранные труды по языкознанию и культурологии. – М.: Прогресс, 1993.
4. Вайсгербер Й. Л. Родной язык и формирование духа. – М.: МГУ, 1993.
5. Пирс Ч. С. Собрание сочинений. – Кембридж, 1965.
6. Umarxo'jayev M.E. So'z dunyosi – Til dunyosi. – Andijon, 2023.
7. Равшанов М. Номинатив birliklarining semiologik va leksikografik tavsifi. – Тошкент, 2019.
8. Nodirabegim Tursunova. *The interplay of sign, signifier, and concept in linguistic theory* // Xorijiy lingvistika va lingvodidaktika – Foreign Linguistics and Linguodidactics. – 2025. – № 3. – B. 45–52. – Available at: [inScience Journal](https://www.inScienceJournal.com)